

2022 yil 12

Farg'ona shahar

O'zbekiston Respublikasi IIB Farg'ona viloyati IIB Jamoat havfsizligi xizmati Yo'l harakati havfsizligi boshqarmasining maxsus ekspluatatsiya montaj bo'limi raxbari D. Husnizoda bundan buyon bir tomondan «Xaridor» deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan MChJ «Ultramax Road Build» raxbari M. Mirazizov Nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» o'ziga Tegishli bo'lgan mol-mulkni sotish, «Xaridor» esa qabul qilib olingan maxsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

### II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

№	Товар номи	Ўлчов бирлиги	Товар сони	Бирлик учун бошланғич нарх	Бирлиги учун келишилган нарх ККС билан	Позиция учун келишилган сумма ККС билан
1	Бензиновый Швонарезчик	дона	2	40 000 000	34 999 100	69 998 200
<b>Жами</b>						<b>69 998 200</b>

Tovarlarning shartnomaviy umumiy baxosi 69 998 200 (Oltmish to'qqiz million to'qiz yuz to'qson sakkiz ming ikki yuz) so'm QQS bilan.

### III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Xaridor» ko'rsatilgan xizmatning 30 % (foiz) miqdorida pul mablag'ini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan 70% (foiz) qismini «Sotuvchi» tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob –fakturalarni taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2. Tovarlarni «Sotuvchi» ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan xolda qo'shimcha belgilanadi.

### IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI.

4.1. Tovarni yetkazib berish muddati - 15 (o'n besh) ish kuni ichida avans to'langan kundan boshlab amalga oshiriladi.

### V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Sotuvchi» ning xuku va majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o'z vaqtida «Xaridor»ga yetkazib BERISH ;

- Shartnomaning shartlari «Xaridor» tomonidan buzilganda ko'rsatilayotgan tovarni to'xtatib qo'yish Huquqiga ega:

- Tegishli darajada tovar yetkazib berilgandan so'ng ,sifatli bo'lmagan tovarni ushbu shartnomaning 2-bandi talablarida ko'rsatib o'tilgan Shartnomaning umumiy so'mmasidan sifatli bo'lmagan tovar baxosini qaytarib BERISH. Sifatsiz tovar haqida Sotuvchiga xabarnoma olgandan so'ng tomonlar o'rtasida sifatsiz tovarlarni qaytarib BERISH bo'yicha o'zaro dalolatnoma tuziladi.

- «Sotuvchi» yetkazib bergan maxsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

5.2. «Xaridor» ning Huquq va majburiyatlari:

- «Xaridor» Shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu Shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida maxsulotni qabul qilib olishi lozim.

- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida Tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 kun ichida «Sotuvchini» ni ogoxlantirish kerak.

- To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

#### VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida Shuningdek ushbu Shartnomada nazarda to'tilgan talablar asosida javobgardirlar.

6.2. «Sotuvchi» tomonidan «Xaridor»ga tovar va maxsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan xar bir kun uchun yetkazib berilmagan maxsulot qiymatining 0,5 % (foiz) Miqdorida «xaridor» ga penya tulydi, lekin penya Miqdori kechiktirilgan maxsulot qiymatining 50 % (foiz) dan oshmasligi kerak.

6.3. SHartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi xamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu maxsulot qiymatining 20 % (foiz) Miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

6.4. «Xaridor» tomonidan olingan tovar yoki maxsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan so'mmaning 0,01 % (foiz) Miqdorida «Sotuvchi»ga penya tulydi, bunda penyaning umumiy Miqdori kechiktirilgan so'mmaning 50 % (foiz) dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar yoki maxsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

#### VII. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tUSDagi xolatlariga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, Shuningdek xarbiy xarakterlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakterlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlar Tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogoxlantirib, Shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

#### VII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnomani bajarish, o'ZGARTIRISH va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar iktisodiy sudlar orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal qilinadi.

8.2. SHartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

#### XI. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA KUCHGA KIRISHI.

9.3. Ushbu shartnoma 2022 yil «31» /12/ 2022 yil «31» dekabrgacha 2 nusxada tuzildi.

9.4. SHartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, g'aznachilik bo'limida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

#### X. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

##### «XARIDOR»

Fargo'na viloyati IIB JHXB MEMB  
Farg'ona shaxar, Universitet ko'chasi, 37 uy  
INN:304931247, OKONX: 22100  
O'zbekiston Respublikasi  
G'aznachiligi  
R/2482000300/00001010  
01122919



##### «SOTUVCHI»

MChJ «Ultramax Road Build»  
Toshkent shaxri,  
Yunusabad rayoni, Chinabad, 85  
XR 2020 8000 5054 8217 1001  
AIKB "Ipak Yoli"  
Bank M. Ulugbek filiali  
MFO - 00421 OKED - 46730  
INN - 309 219 859



Raxbar: M. Mirazizov